

**KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH VA
NAZORAT QILISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

Ismayilov Akmal Ziyadillayevich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

e-mail: akmalismailov1979@gmail.com

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi nafaqat bizda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, o'quv jarayonida katta e'tibor talabani mustaqil ishlashiga va shu asosda fanlarni chuqurroq o'zlashtirishiga qaratilganligidir. Shularni hisobga olib ushbu maqolada talabalarining mustaqil ishlarini to'g'ri tashkil etish, shakllantirish, takomillashtirib borish va mexanizmini doimiy harakatini ta'minlash borasida fikrlar berilgan. Hamda kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish va nazoratini amalga oshirish, mavjud muammolar va ularning echimlari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul, kredit-modul tizimi, "Sillabus", mustaqil ish, kompetensiya, yangi pedagogik texnologiyalar.

Barchamizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020-yildagi 824-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 29.04.2024-yildagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i va boshqa tegishli qator hujjatlarda Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etilishi belgilab berilgan. Shulardan kelib chiqib bugungi kunda barcha Oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarida kredit-modul tizimi joriy etilgan.

Barchamizga ma'lumki kredit-modul tizimi asosida fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan "Sillabus" o'quv yili (semestr) boshida talabalarga taqdim etiladi. "Sillabus"da fanning maqsadi va uning o'quv dasturida tutgan o'rni, kasbiy faoliyat uchun ahamiyati, talabalar ushbu fanni o'rganish natijasida ega bo'ladigan bilimlar va ko'nikmalar, fan bo'yicha semestr davomida o'rganiladigan mavzular, foydalanishga tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati, baholash mezonlari, talabalarining bajarishi lozim bo'lgan mustaqil ishlari mavzulari va turlarini qamrab olishi kerak.

Bunda (Sillabusda) talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e'tibor berishimiz lozim:

1. Bilim sohasi, ta'lim sohasi va yo'nalishlarini;
2. Talabalarimizni nechanchi bosqichda tahsil olishini;
3. Ushbu fanimizning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasini;
4. Mustaqil ish mavzusining axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasini;
5. Mustaqil ish topshiriqlar bankini yaratishda ularning murakkablik darajasi inobatga olinishi;
6. Talabani axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;
7. Mustaqil ish mavzusi talabani muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirishga xizmat qilishi;
8. Mustaqil ish mavzusi talabalarining mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko'nikmalarini egallashiga xizmat qilishi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, talabalar o'tilayotgan fanni yaxshi o'zlashtirishi va uning mazmun-mohiyatini anglab yetishlarida ular tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, talabalarning o'zlari tomonidan bajariladigan mustaqil ishlari - bu talabaning o'ziga xos o'quv faoliyati bo'lib, topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga, fanga qiziqishi ortishiga va muayyan fan sohasida bilimlarni egallashiga yordam beradi. Mustaqil ishlarni bajarishi jarayonida talabalarning mantiqiy fikrlashi, ijodiy faolligi, o'quv materiallari bilan ishlashni o'zlashtirib tadqiqotchilik yondashuvlari shakllanib boradi. Umuman olganda, "MUSTAQIL TA'LIM" - o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, talabaning muayyan fanga oid xususiy kompetensiyalarni egallash va rivojlantirish, mustaqil fikrlash, masala va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechimini izlash, uni taqdim etish ko'nikmalarini egallash hamda auditoriyada olingan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot va materiallarni mustaqil o'rganishga qaratilgan muhim o'qitish shaklidir.

Shu o'rinda o'zimizga savol beraylik, mustaqil ta'limni tashkil etishdan maqsad nima? O'ylaymizki buni javobi quyidgicha. Mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (mavzu) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, fan professor-o'qituvchilari bilan verbal va noverbal holatda ishlash orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda talabalarning mustaqil ta'limi samarali tashkil etilgan deb hisoblaysizmi? – degan so'rovnoma professor-o'qituvchilar tomonidan turlicha fikr-mulohazalar berilgan. So'rovnomada ishtirok etgan professor-o'qituvchilarning 29,6 foizi "Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim samarali tashkil etilgan", 31,3 foizi "Samarali tashkil etilmagan", deb hisoblashsa, 39,1 foizi "Qisman samarali tashkil etilgan", deb javob berishgan. So'rovnoma natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim yetarli darajada tashkil etilmagan. [1, B. 9]

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari ularni yuzaga kelayotgan nazariy va amaliy muammolarni oqilona va samarali hal eta oladigan ijodkor shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak mutaxassislarda tadqiqotchilik ko'nikmalarining bo'lishi-yuqori malakali kadrlarga qo'yiladigan eng muhim talablardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki, biror bir sohada tadqiqotchi kadrlar faoliyat yuritmas ekan, bu sohada yangiliklar, rivojlanishlar, samaradorlik ko'rsatgichlari haqida gap bo'lishi mumkin emas. [2, B. 183-201]

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining shu yil 29-apreldagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi 136-sonli Buyrug'ida aniq maqsad va vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Uning IV-bandida "Mustaqil ta'limni tashkil etishda professor-o'qituvchilar va talabalarining vazifa va majburiyatlari" ko'rsatib berilganini alohida ta'kidlash zarur. [3, B. 1-6]

Bugungi kunda kredit-modul tizimi asosida talaba o'zlashtirishi kerak bo'lgan fanlarning auditoriya mashg'ulotlariga umumiy o'quv yuklamasining o'rtacha 40 foizi va talabalarning mustaqil ishlarni bajarishiga 60 foizi ajratilganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, talaba fanlarni o'zlashtirishida o'z ustida ishlashi, ya'ni berilgan mustaqil ish mavzularini o'z vaqtida sifatli bajarib kelishlari shart. Bunda esa professor-o'qituvchining ham zimmasiga katta vazifalar yuklanadi. Bu vazifalarning ayrimlari quyidagilardan iborat deb bilamiz:

- 1) Fan bo'yicha Sillabus tayyorlayotganda mustaqil ish mavzulariga ahamiyat berish (fan mavzularini qamrab olish);
- 2) Mustaqil ish mavzularini birinchi dars mashg'ulotidayoq talabalar diqqatiga yetkazish;

3) Talabalarga mustaqil ish mavzularini yoki ularni bajarish usullarini tanlashda yo'l-yo'riq ko'rsatish;

4) Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berib borish;

5) OTM kutubxonasining o'quv-uslubiy ta'minlanganligidan kelib chiqib qaysi adabiyotlardan foydalanishlari mumkinligini aytib o'tishlari;

6) Har bir talaba bilan mustaqil ish mavzulari yuzasidan kerak bo'lsa individual ishlash;

7) Talabalarining nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini mustaqil ish mavzulari orqali tizimlashtirib borish;

8) Talaba mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarib kelishlarini nazorat qilish;

9) Talaba tomonidan bajarilgan mustaqil ishlarni xolisona baholash va kamchiliklari bo'lsa to'g'ri tushunchalar berib borish;

10) Talabalarni ongidan "bilim olish faqat auditoriyada" degan tushunchani chiqarib tashlashga erishishi kerak.

Talaba mustaqil ishlarni bajarishi jarayonida ko'p muammolarga, savollarga duch kelishi tabiiy. Mana shunday vaqtda professor-o'qituvchilarimiz talabalarining savollariga yetarli darajada javob bera olishi uchun esa o'qituvchi o'z sohasining bilimdoni bo'lishi talab etiladi. Aks holda o'qituvchi va u o'qitadigan fanning reytingi tushib ketadi, agar u tanlov fani bo'lsa, o'quv rejasidan olib tashlanishigacha borilishi mumkin.

Bugungi kunda Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan keng qo'llanilishini e'tiborga olgan holda, talabalar mustaqil ishlarni bajarishlarida elektron shaklda bajarishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Kuzatishlarim natijasida shuni afsus bilan aytib o'tishim lozimki, talabalarimiz mustaqil ishlarni bajarishlarida an'anaga aylanib qolgan referat shaklidagi, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak internet tarmoqlaridan tayyor ma'lumotlarni ko'chirib olib, chop ettirib, eng achinarlisi berilgan ma'lumotlarga ko'z ham yuritmasdan yuziga ism familiyasini yozib kelishmoqda. Bunday holatda albatta biz professor-o'qituvchilarning ham aybimiz bor. Demak, biz mas'uliyatni oshirgan holda, talabchanlikni unutmasligimiz, kerak bo'lsa to'g'ri ko'rsatma va maslahatlarimizni berib borishimiz lozim.

Talaba mustaqil ta'limni bajarishda (tashkil etishda) fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- hisoblash-chizma mustaqil ishini bajarish;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan masalaga aniq yechim topish va uni tahlil etish;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- berilgan mavzuni chuqur o'rganish va yuqori darajada tahlil qilish;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- hisob-grafik-loyihalash ishlanmalarini tayyorlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash.

Bundan tashqari o'qituvchi fanning xususiyatidan kelib chiqib, talabalarga turli kompyuter o'quv-dasturlari (MatLab, CorelDRAW, AutoCad, Excel, ...) yordamida elektron tarzda bajariladigan mustaqil ish topshiriqlarini ham berishi mumkin. Va albatta, tavsiya sifatida shuni

aytishimiz mumkinki mustaqil ishlarni bajarishda imkon qadar birorta yangi pedagogik texnologiyalar (klaster, BBB, Venn diagrammasi, T-jadvali, nima uchun, qanday, nilufar guli ...) [4, B. 9-28] dan foydalanishlarini talab qilsak o'ylaymanki bo'lajak pedagoglar uchun foydadan holi bo'lmaydi. Qolaversa, har bir muassasa mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqishlari, har bir fan bo'yicha mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, qo'llanmalar ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Qolaversa "mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini yo'lga qo'yish lozim". [5, B. 223] Albatta bularni amalga oshirsak foydadan holi bo'lmaydi. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki: 1) professor-o'qituvchi mustaqil ta'limga berilgan topshiriq va vazifalarni nazorat qilishi, individual tekshirib borishi hamda baholab borishlari uchun qo'shimcha vaqt va kuch sarflaydi. Shuning uchun bizningcha professor-o'qituvchilar yuklamasini hisoblash bo'yicha vaqt me'yorlarini qayta ko'rib chiqish zarur deb o'ylaymiz. 2) O'qituvchi tomonidan berilgan mustaqil ta'lim bo'yicha individual topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini (intizomni) baholashda aniq mezon ishlab chiqilmagan. Mustaqil ish vazifasini belgilangan muddatda bajarib kelmasa ya'ni muddatlar buzilgan taqdirda fan professor-o'qituvchisi baho (ball)ni pasaytirish huquqiga ega bo'lishi kerak va ushbu jihat fan dasturi va sillabusda ko'rsatilishi lozim deb o'ylaymiz.

Xulosa qilib aytganda kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, samaradorligini va sifatli bajarilishini ta'minlash, nazorat qilish hozirgi vaqtda dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri hisoblanadi. Zero eramizdan avvalgi VI asrda yashab ijod etgan buyuk xitoy faylasufi Konfutsiy shunday degan edi, "Eshitdim unutmam, ko'rdim eslab qoldim, bajardim tushundim". Bugungi XXI asrda talabalarning mustaqil ishlarini o'zlari tomonidan bajarishi fanning mohiyatini anglab etishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ertangi kunimiz egalari bo'lgan talabalarimizni bilimli, zukko, dono va albatta o'z kasbining mukammal egalari bo'lishlari uchun o'z kasbimizni sidqidildan bajarishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustaqil ta'limni tashkil etish va baholash mezonlari [Matn]: metodik qo'llanma / L.Zaripov, Z.Tohirov, M.Tuxtayeva. – T.: "Yetakchi nashriyoti", 2024.
2. Healey, M. (2005). Linking research and teaching to benefit student learning. *Journal of Geography in Higher Education*, 29 (2).
3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 29.04.2024-yildagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i
4. Qarang: Raximov B.H. O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o'tkazish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2016.
5. Musaxanova G.M. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*. 2020. №6.